XALQ DEPUTATLARI BAXMAL TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-040-3-44-K/24 Baxmal tumani

Baxmal tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2025-yilda soliq stavkasiga qo‘llanadigan koeffitsentlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 61-bob, 429-moddasiga muvofiq, yer solig‘i bo‘yicha yuridik shaxslardan hamda 62-bob, 437-moddasi, yer solig‘i bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha bazaviy soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlarni ularning hududlarida joylashgan daxa, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 16^1-, 16^2- va 24-moddalariga muvofiq, “Baxmal tumanida 2025-yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari to‘g‘risida”gi tuman hokimining Moliya-iqtisod va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i N.Sharipov va tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i J.Axbutayevning axboroti va takliflarini tinglab, muhokama qilib, soliq yo‘nalishidagi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi asosida Xalq deputatlari Baxmal tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. “Baxmal tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2025-yilda soliq stavkasiga qo‘llanadigan koeffitsentlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi tuman hokimining Moliya-iqtisod va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i N.Sharipov va tuman soliq inspeksiyasi

boshlig‘i J.Axbutayevning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin, takliflari inobatga olinib, ma’qullansin.

2. Baxmal tumanida 2025-yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan jismoniy shaxslarga tegishli turar joylari joylashgan yerlar hamda 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan noturar joy binolari joylashgan yer maydonlariga belgilangan soliq stavkalariga qo‘llanilgan koeffisentlar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi ilovalarda ko’rsatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlarni belgilash huquqiga egaligi ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Tuman hokimining Moliya-iqtisod va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i N.Sharipov va tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i J.Axbutayevlarga:

Ushbu qaror kuchga kirgandan so‘ng besh kunlik muddat ichida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun 2025-yilga belgilangan soliq stavkalarini jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilishi ta’minlansin.

6. Tuman hokimining matbuot kotibiga:

ushbu qaror matbuotda rasmiy e’lon qilinishi hamda tuman hokimligining veb sayti, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirilishi ta’minlansin.

7. Mazkur Qaror 2025-yilning 1-yanvar sanasidan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Xalq deputatlari Baxmal tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Baxmal tumani qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar hamda mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun 2024-yilga belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-66-197-3-44-K/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash Tuman hokimining Moliya-iqtisod va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i N.Sharipov va tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i J.Axbutayev, bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (E.Kattabekov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi ERGASHEV AZIZ MAMARASULOVICH

Xalq deputatlari Baxmal tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-040-3-44-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahallalar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2025-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Mahalla nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari. 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha. 1 kv.m uchun *(turar joylar uchun belgilangan o‘sish me’yoridan oshmagan holda)*	
		Koeffitsient (0.7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)	Koeffitsient (0.7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1	Barlos MFY	0.95	46 272 600.00	0.85	305.18
2	Baxmal MFY	0.95	46 272 600.00	0.78	280.05
3	Bog‘ishamol MFY	0.80	38 966 400.00	0.77	276.46
4	Bunyodkor MFY	0.85	41 401 800.00	0.85	305.18
5	Vatanparvar MFY	0.85	41 401 800.00	0.83	298.00
6	G‘allakon MFY	0.74	36 043 920.00	0.70	251.33
7	Gulbuloq MFY	0.95	46 272 600.00	0.88	315.96
8	Do‘stlik MFY	1.08	52 604 640.00	0.80	287.23
9	Istiqlol MFY	0.80	38 966 400.00	0.80	287.23
10	Qutlugobod MFY	1.08	52 604 640.00	0.83	298.00
11	Madaniyat MFY	0.74	36 043 920.00	0.70	251.33
12	Davlat MFY	0.85	41 401 800.00	0.70	251.33
13	Mug‘ol MFY	0.74	36 043 920.00	0.70	251.33
14	Muzbuloq MFY	0.74	36 043 920.00	0.70	251.33
15	Mustaqillik MFY	0.74	36 043 920.00	0.70	251.33
16	Navbahor MFY	0.85	41 401 800.00	0.88	315.96
17	Novqa MFY	0.85	41 401 800.00	0.77	276.46

18	Nurafshon MFY	0.74	36 043 920.00	0.88	315.96
19	Nushkent MFY	0.74	36 043 920.00	0.70	251.33
20	Oyqor MFY	0.85	41 401 800.00	0.70	251.33
21	Oqtosh MFY	1.08	52 604 640.00	0.80	287.23
22	Sangzor MFY	0.85	41 401 800.00	0.70	251.33
23	Saroy MFY	0.74	36 043 920.00	0.70	251.33
24	Temirqadam MFY	0.85	41 401 800.00	0.78	280.05
25	Tongotar MFY	0.85	41 401 800.00	0.88	315.96
26	Uzunbuloq MFY	0.74	36 043 920.00	0.70	251.33
27	O'smat SHFY	1.08	52 604 640.00	0.85	305.18
28	O‘rmonchi MFY	0.85	41 401 800.00	0.77	276.46
29	Fayzobod MFY	1.08	52 604 640.00	0.80	287.23
30	Fidokor MFY	0.74	36 043 920.00	0.70	251.33
31	Shodlik MFY	0.85	41 401 800.00	0.85	305.18
32	Yangibog MFY	0.85	41 401 800.00	0.85	305.18
33	Nurobod MFY	0.95	46 272 600.00	0.80	287.23
34	Muzbel MFY	0.95	46 272 600.00	0.85	305.18